


# ILM – FAN TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR



**“Girihi, gulli girihi naqsh kompozitsiyasini chizish, bo‘yash va padozlash”**

Qo‘qon DPI talabasi **Dexqonova Odina Sarvarbek qizi**

## Annotation

Ushbu maqolada naqqoshlik sanatining eng kata turlari bo‘lgan girihi naqshi rivojlanishi togrisida va islimiy naqsh kompozitsiyalarini bir biriga aralashtirib chizish, bo‘yash va padozlash haqida malumotlar keltirilgan.

**Kalit so`zlar:** Girihi, gulli girihi, girihi naqshlari panjara, geometrik naqshlar.

**«Нарисуй, раскрась и закончи композицию гирих, цветочный узор гирих»**

**Декхоновой Одина дочь Сарварбек,** студентка Коканд ГПИ

## Abstract

В этой статье представлена информация об узоре гирих, который является самым крупным видом живописи, а также о рисовании, живописи и украшении исламских узорных композиций.

**Ключевые слова:** гирих, цветочный гирих, сетка узоров гирих, геометрические узоры.

**“Draw, paint and finish the composition of the gyrih, gyrih flower pattern”**

**Dekhkonova Odina daughter of Sarvarbek,** a student of Kokand SPI

## Abstract

# ILM – FAN TA'LIMDA INNOVATION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR



This article provides information about the girih pattern, which is the largest type of painting art, and about drawing, painting, and decorating Islamic pattern compositions.

**Keywords:** Gyrih, flowery girih, girih patterns grid, geometric patterns.


Girih (fors. — muammo, tugun, chigal) — murakkab handasiy naqsh; me'morlik va badiiy hunarmandlikda keng ishlataladi. Naqsh asosi uchburchak, to'rburchak, murabba, aylana va yoy shaklli taqsimlardan tashkil topadi. Handasiy jihatdan girihni tahlil etish, chizib chiqish, yangi turlarini ijod etish maxsus tayyorgarlik va mahoratni talab qiladi. Girihlar yaratilish davrida sodda bo'lib, keyinchalik takomillashib, murakkablashib borgan.

Girih qancha murakkab mujassamotga ega bo'lmasin, uning qulay tomoni ham bor: har qanday girih takrorlanuvchi ma'lum bo'lak (taqsim)larga ajraladi. Taqsimlar takrorlangan sari go'zal, jozibador bo'lib boradi. Shu tufayli ba'zi sodda girihlardan tashkil topgan murakkab girihni qayta parchalab, bir necha sodda va mustaqil girih yasash, ikki girihni bir-biriga chatishirib uchinchi xil girih yaratish mumkin.

Shakllariga qarab G.lar turlicha nomlanadi: taqsim asosida 5 va 10 qirrali yulduz bo'lsa "5 va 10 qirrali G.", pargar yordamida chizilgan egri chiziqlardan yasalsa "Pargari G." va h.k.

Saqlanib qolgan me'moriy obidalar, ro'zg'or buyumlari (barkash, obdasta, lagan, sopol idishlar, gilam, palak va b.), zardo'zlik, kitob bezaklarida girih naqshi ko'p uchraydi. Ayniqsa me'moriy bezaklar orasida girihiyetakchi (islimiyl naqsh ikkinchi) o'rinni egallaydi.

# ILM – FAN TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR



Me'moriy yodgorliklardagi girichlarni yasash kalitini topish ko'pincha ancha mashaqqatli mehnatni talab etadi. Naqqosh, girihsunos usta Z.Bositxonov ko'pgina (300 dan ortiq) girichlarni tiklagan va ularni qurish yo'llarini topgan, yangilarini yaratgan.

Girihsuning qachon, qayerda vujudga kelganligi noma'lum. Hozirgi O'zbekistan hududidagi me'moriy obidalardan xususan 10-asrda Arabota maqbarasi (Samarqand viloyati), Mirsaid Bahrom (Karmana), Raboti Malik karvonsaroyi (Navoiy), Juma masjidi (Xiva), 12-asrda Afrosiyob (Samarqand), Termiz shoxlar saroyi, Masjidi kalon (minorasi, 12-asr, Buxoro), 15—16-asrlarda Xo'ja Ahmad Yassaviy majmuasi (Turkiston), Registon maydonidagi Ulug'bek, Sherdor, Tillakori madrasalari, Bibixonim masjidi, Shohizinda ansamblidagi ko'pgina binolar (Samarqand), Ko'kaldosh, Barokxon madrasalari, Zangiota maqbarasi (Toshkent), Xudoyorxon saroyi hamda masjidlari (Qo'qon) bezaklarida girihsaqshi ko'plab uchraydi.

10—11-asrlarda faqat ganchda, 12-asrda sopol buyumlar va g'isht qalamalarida, 14-asrdan koshin, parchin, yog'och, tosh va rangli naqshlarda uchraydi. 15-asrga kelib sopolga o'yilgan naqshlar yuzalariga sir berish rasm bo'ldi. girihsini ishlatish imkoniyatlari yana kengaydi.

20-asrda o'zbekistonlik Usta Shirin Murodov, Shamsiddin G'afurov, Maxmud Usmonov va b. ustalar binolarni bezashda qo'llagan girihsalar o'zining sodda va go'zalligi, ajoyib va mukammalligi bilan ajralib turadi.

G.ning bunday namunalarini Toshkentdagি Navoiy, Muqimiy teatr binolari, O'zbekistan xalqlari tarixi muzeyi, Xalqlar Do'stligi saroyi, metro bekatlari va b. da ko'rish mumkin. Ayniqsa, O'zbekistan mustaqilligidan keyin barpo qilingan


# ILM – FAN TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR



Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Buxoriy majmuasi, Oliy majlis binosi kabi yirik me'moriy inshootlar, jamoat (choyxona, mahalla guzarlari va b.) va xususiy binolar bezagida girih naqshning asosiy turlaridan biriga aylandi.

Gulli girih – murakkab deb ataluvchi naqsh turi. Gulli girih islimiy va geometrik naqsh elementlarining o'zaro savatsimon aralash to'kilishidan iborat.

Murakkab naqshlarda shakl yasovchi yo'l chiziqlari naqshning asosini tashkil etib, islimiy elementlar esa shakl oralarini to'ldiradi.



Geometrik naqshlarning yakka, qo'sh va bir necha yo'lli ko'rinishlari mavjud bo'lib, shakl bo'laklari simmetrik joylashuvchi taqsim – rapportlarga ega.

Girih naqshlari panjara – to'siq degan ma'noni ham anglatadi. Xalq amaliy san'atida geometrik naqshlar naqqoshlikdagi singari ganch va yog'och o'ymakorligi hunarlarida ham o'ziga xos ravishda ishlanadi. Tarixiy obidalarda asosan oyna to'siqlari, xonalarning havosini o'zgartirishga mo'ljallangan eshiklar tepasidagi tuynuklar (tobardonlar) ganch va yog'och o'ymakorligi usullarida bajarilgan. Xona issiqligini saqlash maqsadida, qish kunlari panjaralni to'siq yuzalariga shaffof qog'ozlari yopishtirilgan.

Geometrik naqsh elementlari oddiy aylana uchburchak, to'rburchak, ko'pburchak va egri chiziqlarning o'zaro tutashuvlaridan hosil bo'ladi. Bu elementlarni kompozitsion joylashtirish orqali istalgancha yangi girihlar tuziladi. Geometrik naqshlarni ham islimiy naqshlar singari ma'lum bo'lak-taqsimlar yordamida chizib ko'paytiriladi. Girih naqsh elementlarini quyidagicha kombinatsiyalash asosida tuzish mumkin:

# ILM – FAN TA'LIMDA INNOVATION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR



Uchburchaklarni o'zaro kombinatsiyalash

To'rtburchaklarni o'zaro kombinatsiyalash

Muntazam ko'pburchaklarni o'zaro kombinatsiyalash

Egri chiziqlarni o'zaro kombinatsiyalash

Geometrik naqshlar shakl qirralariga, raxlariga qarab nomlanadi. Agar girih naqshi besh qirrali yulduzdan iborat bo'lsa, besh raxli, olti yoki sakkiz qirrali shakllarga ega bo'lsa – olti, sakkiz raxli girihi deb nomlanadi.


Chigal tugun ma'nosini anglatuvchi geometrik naqshlarning echimlarini topish va yangi usullarini yaratish ishlari tinimsiz davom etib kelmoqda. Ushbu izlanishlar natijasida girihkor usta Z.Bositxonov o'zining 300 ga yaqin yangi geometrik kompozitsiyalarini yaratgan. Girih naqshlari zamonaviy inshoatlarimizni ham ko'rkiga ko'rк bag'ishlab kelmoqda.

Kompozitsiyaning rejasini tuzish va chizish jarayonida shakl va zamin bo'yicha tarqaluvchi ranglar va elementlarning o'zaro mutanosibligi hisobga olinishi shart. Buning uchun dastlab naqsh kompozitsiyasining qoralama nusxasi chizib olinadi. So'ng, ana shu qoralama asosida (lozim topilgan taqdirda ayirish o'zgartirishlar kiritish orqali) har bir elementga alohida ishlov berilgan holda uning nusxasi kerakli joyga ko'chiriladi va yaxlit naqsh tuziladi.

Adabiyotlar:

Ortiqboy, S. S., & Makhsudali, J. (2022). A Desire Sung in a Pattern. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 3(5), 6-9.

# ILM – FAN TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR



Prozorova, M. N., Zharkov, A. D., Zharkova, A. A., Khamdamova, V. A., Sattorova, S. O., & Losev, V. S. (2021). University graduate career potential in digital transformation period: Features and problems of formation. *Linguistics and Culture Review*, 5(S3), 1574-1585.

Sattorova, S. O. (2021). PATTERN SUNG ON THE CARPET. *Экономика и социум*, (5-1), 445-448.

Abdurahimovich, M. A., & Qizi, S. S. O. (2020). Master Student Etiquette. [www.conferencepublication.com](http://www.conferencepublication.com), 22.

Khaydarovich, A. A. (2020). Colors in Descriptive Art. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 2(12), 20-22.

Mamadjananovich, B. B. IT is Necessary to Feed the World with Beauty!. *International Journal on Integrated Education*, 3(8), 215-217.

Bulatov S.S., Dadashev I. Naqsh alifbosi. – T: Cho'lpon, 2012.

S.Bulatov "O'zbek xalq amaliy bezak san'ati" T-2010

Ахмедов М.Б. Ёгоч уймакорлиги. -Т.: Адабиёт учқунлари, 2017

Муратов Х.Х., Жаббаров Р.Р. Амалий ва бадиий безак санъати. -Т.: Ижод-принт, 2020